

**O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI PREZİDENTİNİNİNG
QARORI**

**KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH ISHLARINING SAMARADORLIGINI
REYTING BAHOLASH TİZİMİNİ JORİY ETİSH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

Mamlakatimizda davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish, uni keltirib chiqarayotgan sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish borasida tizimli choralar ko'rilmoxda.

Xususan, bir qator vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida ISO 37001:2016 xalqaro standartiga asosan korrupsiyaga qarshi menejment tizimi joriy etilib, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki idoraviy hujjatlar qabul qilindi.

Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini baholash mexanizmlari mavjud emasligi sohada amalga oshirilayotgan tadbirlarga yagona mezon asosida xolisona baho berish va ularning natijadorligini yanada oshirishga to'sqinlik qilmoqda.

Davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatiga oid samaradorlik ko'rsatkichlarini belgilash va ularni ilg'or xalqaro standartlar asosida baholash tizimini joriy etish maqsadida:

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokuratura va Adliya vazirligining davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, mahalliy davlat hokimiyati organlarida (keyingi o'rinnarda — davlat tashkilotlari) korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarning samaradorligini tahlil qilish, baholash va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

Belgilansinki, korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash (keyingi o'rinnarda — reyting baholash) quyidagi beshta yo'naliish bo'yicha belgilangan indikatorlar asosida amalga oshiriladi:

davlat tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mexanizm va huquqiy asoslarning yaratilganligi hamda amaliyatga tatbiq etilganligi;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilganligi;

davlat tashkilotlari rahbarlarining korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni ko'rsatuvchi xatti-harakatlarining mavjudligi;

xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki tartib-taomillardan xabardorligi hamda ushbu sohada bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilganligi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tegishli soha yoki tarmoq kesimida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ushbu illatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarining samaradorligi.

2. Shunday tartib o'rnatisinki, unga muvofiq:

2022-yil 1-fevraldan boshlab reyting baholash tizimi, eksperiment tariqasida, **1-ilovada** ko'rsatilgan va o'z faoliyatida korrupsiyaga qarshi menejment tizimini joriy etayotgan davlat tashkilotlari faoliyatiga;

2022-yil 1-iyuldan boshlab eksperiment natijalarini inobatga olgan holda reyting baholash tizimi barcha davlat tashkilotlari faoliyatiga joriy etiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash (T. Narbayeva) Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (A. Burxanov) va boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda eksperiment natijalarini chuqr tahlil qilish va muhokama qilish hamda reyting baholash tizimining samarali va to'liq joriy etilishini ta'minlash bo'yicha choralarini ko'rsin.

3. Belgilansinki:

reyting baholash Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) tomonidan “E-Anticor.uz” elektron platformasi (keyingi o‘rinlarda — elektron platforma) orqali tashkil etiladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligi 0 balldan 100 ballgacha reytingda baholanib, faoliyat samaradorligi “yaxshi”, “qoniqarli” va “qoniqarsiz” toifalarga ajratiladi;

reyting baholash natijalari elektron platformada hisoblab chiqiladi va har yili 1-martga qadar keng jamoatchilik uchun ommaviy axborot vositalarida e’lon qilib boriladi;

har yili oldingi yilning 1-yanvaridan baholanish o‘tkazilayotgan yilning 1-yanvariga qadar bo‘lgan davr reyting baholash tizimi bilan qamrab olinadi;

reyting baholash natijalarining xolisligini tekshirish maqsadida kamida 30 foizi fuqarolik jamiyati institutlari vakillaridan iborat bo‘lgan Reyting baholashni mustaqil amalga oshiruvchi ekspertlar guruhi shakllantiriladi.

4. Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tartibi to‘g‘risidagi nizom [2-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengash (T. Narbayeva) Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (A. Burxanov) bilan birgalikda reyting baholash yakunlariga ko‘ra quyidagi choralarini ko‘rsin:

“yaxshi” deb baholangan davlat tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi ijobiy tajribasini ommalashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish;

“qoniqarli” deb baholangan davlat tashkilotlariga ularning korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatini yanada yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar kiritish va ularni amalga oshirishda ko‘maklashish;

“qoniqarsiz” deb baholangan davlat tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashishda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va ularning ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilishini ta‘minlab, uning ijrosi yuzasidan tegishli rahbarlarning hisobotlarini har chorakda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashning yig‘ilishlarida eshitish.

5. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (A. Burxanov) Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh. Sermatov) bilan birgalikda:

ikki oy muddatda elektron platforma orqali zarur hujjatlarni onlayn rejimida olish va reyting baholash natijalarini hisoblash imkonini yaratgan holda, uning to‘liq ishga tushirilishini ta‘minlasin;

eksperiment yakuniga ko‘ra elektron platformani takomillashtirish va modernizatsiya qilish hamda uning samarali va uzlusiz ishlashini ta‘minlash choralarini ko‘rib borsin.

Belgilab qo‘yilsinki, elektron platformani takomillashtirish va modernizatsiya qilish, uni texnik va dasturiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq xarajatlar har yili Agentlikka Davlat budgetidan ajratiladigan mablag‘lar va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qoplanadi.

6. Agentlik (A. Burxanov) xalqaro tashkilotlar va xorijiy ekspertlarni jalb etgan holda:

ikki oy muddatda Reyting baholashni mustaqil amalga oshiruvchi ekspertlar guruhi tarkibini shakllantirish va uning faoliyatini tashkil etishning tartibi ishlab chiqilib, tasdiqlanishini ta‘minlasin;

uch oy muddatda reyting baholash, elektron platformadan foydalanish tartibi bo‘yicha qo‘llanmalarni tayyorlasin, shuningdek, davlat tashkilotlari xodimlari uchun reyting baholash, shu jumladan elektron platformadan foydalanish tartibini tushuntirish bo‘yicha muntazam ravishda seminarlarni tashkil etib borsin;

2022-yil 1-iyulga qadar har bir indikator bo‘yicha ko‘rsatkichlarni tahlil qilish usullari va aniq mezonlarini belgilovchi reyting baholash uslubiyotini tasdiqlasin;

muntazam ravishda davlat tashkilotlariga korrupsiyaga qarshi kurashishga oid tegishli ichki idoraviy hujjatlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha amaliy yordam ko‘rsatib borsin.

7. O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi (A. Xadjayev) va O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (A. Ko‘chimov) mazkur qaror hamda reyting baholash natijalari ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini tashkil etsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib Agentlik direktori A.E. Burxanov belgilansin.

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijo uchun mas’ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashi raisi T.K. Narbayeva va O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2022-yil 12-yanvar,
PQ-81-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son qaroriga
1-ILOVA

Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash eksperiment tariqasida o‘tkaziladigan davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan mahalliy davlat hokimiyati organlari

RO‘YXATI

Oldingi tahririga qarang.

T/r	Davlat organlari va tashkilotlari nomi
I. Vazirliliklar	
1.	Adliya vazirligi
2.	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi
3.	Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi
4.	Maktabgacha ta’lim vazirligi
5.	Moliya vazirligi
6.	Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi
7.	Sog‘liqni saqlash vazirligi
8.	Transport vazirligi
9.	Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi
10.	Xalq ta’limi vazirligi
11.	Qurilish vazirligi
II. Davlat qo‘mitalari	
12.	Davlat bojxona qo‘mitasi
13.	Davlat soliq qo‘mitasi
14.	Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi
15.	Davlat statistika qo‘mitasi
III. Agentliklar	
18.	Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish hamda vinochilikni rivojlantirish agentligi
19.	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi
20.	Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi
21.	Texnik jihatdan tartibga solish agentligi
22.	Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi
IV. Mahalliy ijo etuvchi hokimiyat organlari	
23.	Toshkent shahri hokimligi
24.	Toshkent viloyati hokimligi
25.	Toshkent shahri Mirzo Ulug‘bek tumani hokimligi
26.	Toshkent viloyati Bo‘ka tumani hokimligi

(1-ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagи PF-89-soni Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-soni qaroriga
2-ILOVA

Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tartibi to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiq qoidalar

1. Mazkur Nizom barcha davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan mahalliy davlat hokimiyati organlari (keyingi o‘rinlarda — davlat tashkilotlari)da korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash (keyingi o‘rinlarda — reyting baholash) tartibini belgilaydi.

2. Reyting baholash davlat tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha olib borayotgan faoliyati samaradorligini puxta tahlil qilish, baholash va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida o‘tkaziladi.

3. Davlat tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat tizimi va korrupsianing oldini olish bo‘yicha boshqa xalqaro standartlarning samarali joriy etilganligi hamda amaliyotga tatbiq qilinganligi reyting baholashning obyekti hisoblanadi.

4. Reyting baholash Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) tomonidan tashkil etiladi.

2-bob. Reyting baholash yo‘nalishlari va indikatorlari

5. Reyting baholash alohida indikatorlardan tashkil topgan quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

birinchi yo‘nalish — davlat tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mexanizm va huquqiy asoslarning yaratilganligi hamda amaliyotga tatbiq etilganligi;

ikkinchi yo‘nalish — korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo‘yicha tadbirlarning amalga oshirilganligi;

uchinchi yo‘nalish — davlat tashkilotlari rahbarlarining korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni ko‘rsatuvchi xatti-harakatlarining mavjudligi;

to‘rtinchi yo‘nalish — xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki tartib-taomillardan xabardorligi hamda ushbu sohada bilim va ko‘nikmalarini oshirish bo‘yicha tadbirlarning amalga oshirilganligi;

beshinchi yo‘nalish — korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tegishli soha yoki tarmoq kesimida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ushbu illatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan targ‘ibot tadbirlarining samaradorligi.

6. Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligi 0 balldan 100 ballgacha reytingda baholanib, faoliyat samaradorligi “yaxshi”, “qoniqarli” va “qoniqarsiz” toifalarga ajratiladi.

Bunda, indikatorlarni bajarish orqali:

81 balldan 100 ballgacha to‘plagan davlat tashkiloti faoliyat samaradorligi — “yaxshi”;

55 balldan 81 ballgacha to‘plagan davlat tashkiloti faoliyat samaradorligi — “qoniqarli”;

55 dan past ball to‘plagan davlat tashkiloti faoliyat samaradorligi — “qoniqarsiz” deb topiladi.

7. Reyting baholash yo‘nalishlari bo‘yicha ballar quyidagicha taqsimlanadi:

birinchi yo‘nalish — maksimal 35 ball;

ikkinchi yo‘nalish — maksimal 30 ball;

uchinchi yo‘nalish — maksimal 15 ball;

to‘rtinchi yo‘nalish — maksimal 15 ball;

beshinchi yo‘nalish — maksimal 5 ball.

8. Yakuniy ballar mazkur Nizomga **1-ilovada** keltirilgan Reyting baholash yo‘nalishlari va indikator ko‘rsatkichlaridagi ballarni bir-biriga qo‘shib chiqish orqali aniqlanadi.

3-bob. Reyting baholashni amalga oshirish tartibi

9. Reyting baholash mazkur Nizomga **2-ilovadagi** sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

10. Agentlik har yili 5-yanvarga qadar “E-Anticor.uz” elektron platformasi (keyingi o‘rinlarda — elektron platforma) orqali reyting baholashdan o‘tkaziladigan davlat tashkilotlari ro‘yxatini tuzadi hamda bu haqda ularni yozma ravishda xabardor qiladi.

11. Davlat tashkilotlari tomonidan har chorakda (10-aprel, 10-iyul va 10-oktabrga qadar) choraklik ma’lumotlar, har reyting baholash yili yakunida (10-yanvardan kechiktirmay) esa yillik ma’lumotlar elektron platforma orqali Reyting baholash yo‘nalishlari va indikator ko‘rsatkichlari jadvalini to‘ldirish yo‘li bilan kiritib boriladi.

Bunda, ushbu jadval savollarga “to‘liq bajarilgan”, “asosan bajarilgan”, “qisman bajarilgan” yoki “bajarilmagan” ustunlariga tegishli belgini kiritish hamda tasdiqlovchi hujjatlarni biriktirish orqali to‘ldiriladi.

12. Agentlik muntazam ravishda davlat tashkilotlari tomonidan elektron platformaga kiritilgan ma’lumotlarni tahlil qilib boradi, korrupsiya qarshi kurashish samaradorligi “qoniqarsiz” deb topilishi mumkin bo‘lgan davlat tashkilotlariga uslubiy yordam ko‘rsatadi.

13. Davlat tashkilotlari har yili Agentlikning xatini olgandan so‘ng, ushbu Nizomga **2- ilovaga** muvofiq muddatlarda elektron platforma orqali zarur ma’lumotlarni kiritadi.

Bunda, tizimga davlat tomonidan qo‘riqlanadigan va maxsus ro‘yxatlar bilan chegaralab qo‘yiladigan alohida ahamiyatli, mutlaqo maxfiy va maxfiy harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy- texnikaviy va o‘zga xil ma’lumotlarni kiritish taqiqlanadi.

14. Yillik ma’lumotlar kiritilgandan so‘ng Agentlik har yili:

1-fevralga qadar tanlov asosida tegishli davlat tashkiloti tomonidan kiritilgan ma’lumotlarning haqqoniyligini zamonaviy-axborot kommunikatsiya vositalarini (videokonferensaloqa, onlayn so‘rovnoma va shu kabilar) qo‘llagan holda masofaviy o‘rganadi. Bunda:

ma’lumotlarning haqqoniyligi zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari orqali masofaviy o‘rganiladigan davlat tashkilotlari soni faoliyati baholanayotgan davlat tashkilotlarining kamida 15 foizini tashkil etishi lozim;

ma’lumotlarning haqqoniyligi zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari orqali masofaviy o‘rganiladigan davlat tashkilotlari ro‘yxati Agentlik tomonidan, kiritgan ma’lumotlari shubhali, noto‘g‘ri bo‘lgan davlat tashkilotlari orasidan, mustaqil ravishda shakllantiriladi.

15. Ma’lumotlarning haqqoniyligini zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari orqali masofaviy o‘rganish jarayonida noto‘g‘ri yoki soxta ma’lumotlar kiritilganligi aniqlangan taqdirda, Agentlikning o‘zi elektron tizimga kiritilgan ma’lumotlarni mustaqil ravishda o‘zgartiradi va bu haqida O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiya qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashiga ma’lumot beradi.

16. Reyting baholash natijalari elektron platforma orqali hisoblab chiqiladi. Avtomatik ravishda hisoblab chiqilishi nazarda tutilmagan indikatorlar bo‘yicha ballar Agentlik tomonidan hisoblanadi.

4-bob. Reyting baholashni mustaqil amalga oshiruvchi ekspertlar guruhi faoliyatini tashkil etish tartibi

17. Reyting baholash natijalarining xolisligini ta’minlash maqsadida har yili 9 kishidan iborat bo‘lgan Reyting baholashni mustaqil amalga oshiruvchi ekspertlar guruhi (keyingi o‘rinlarda — Ekspertlar guruhi) shakllantiriladi.

Ekspertlar guruhi tarkibini shakllantirish va uning faoliyatini tashkil etish, shu jumladan ekspertlarni tanlab olish mezonlari, ularning majburiyatlari va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish mexanizmlarini nazarda tutuvchi tartib Agentlik tomonidan belgilanadi.

18. Ekspertlar guruhi tarkibi Agentlik tomonidan davlat tashkilotlari takliflariga asosan shakllantiriladi.

Ekspertlar guruhi tarkibiga, qoida tariqasida, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ekspertlar, shu jumladan amaliy tajriba va jamiyatda yuqori obro‘ga ega bo‘lgan boshqa shaxslar kiritiladi.

Bunda, Ekspertlar guruhi tarkibida kamida 3 kishi fuqarolik jamiyatni institutlari vakillaridan bo‘lishi lozim.

19. Ekspertlar guruhi Agentlik tomonidan shakllantirilgan dastlabki reyting baholash natijalarini ko‘rib chiqadi.

Bunda, Agentlik tomonidan ushbu guruhga dastlabki reyting baholash natijalari va tegishli xulosalar taqdim etiladi. Ekspertlar guruhi so‘roviga ko‘ra, boshqa qo‘srimcha materiallar taqdim etilishi, elektron platformaga ulanish imkoniyati yaratilishi mumkin.

20. Ekspertlar guruhi har yili 15-fevralga qadar dastlabki reyting baholash natijalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha quyidagilardan birini Agentlikka taqdim etadi:

dastlabki reyting baholash natijalarini o‘zgarishsiz qoldirish yoki qisman o‘zgartirish haqida xulosa;

muqobil reyting baholash natijalari.

Bunda, xulosa va muqobil reyting baholash natijasi Ekspertlar guruhida ovoz berish natijalariga ko‘ra shakllantiriladigan fikr sifatida taqdim etiladi. Ovozlar teng bo‘lib qolganda guruh rahbarining fikri hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

21. Ekspertlar guruhida qabul qilingan qarorga qo‘silmagan guruh a’zosi o‘z fikrini alohida bildirish huquqiga ega.

22. Agentlik Ekspertlar guruhi tomonidan taqdim etilgan xulosa yoki muqobil reyting baholash natijalarini har yili 20-fevralga qadar puxta tahlil qiladi, unga ko‘ra yakuniy baholash natijalarini shakllantiradi va baholanayotgan davlat tashkilotlariga taqdim qiladi.

23. Davlat tashkilotlari har yili 25-fevralga qadar Agentlik tomonidan yuborilgan yakuniy reyting baholash natijalarini ko‘rib chiqadi hamda zarurat bo‘lganda o‘z taklif va e’tirozlarini Agentlikka taqdim qiladi.

24. Agentlik davlat tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan taklif va e’tirozlarini puxta tahlil qiladi va har yili 1-martga qadar reyting baholashni o‘zgartirish yoki o‘zgartirmaslik haqida qaror qabul qiladi.

25. Agentlik reyting baholash yakunlariga ko‘ra korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi “yaxshi”, “qoniqarli” va “qoniqarsiz” bo‘lgan davlat tashkilotlari ro‘yxatini har yili 1-mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashga kiritadi hamda o‘z rasmiy-veb saytida va ommaviy axborot vositalarida e’lon qiladi.

5-bob. Reyting baholash yakunlari bo‘yicha amalga oshiriladigan tadbirlar

26. Agentlik tomonidan reyting baholash yakunlari bo‘yicha korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi “yaxshi” deb topilgan davlat tashkilotlarining ijobiy ish tajribasini boshqa davlat tashkilotlarida ommalashtirish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Agentlik tomonidan “yaxshi” deb baholangan davlat tashkilotlariga ularning korrupsiyaga qarshi kurashishga mas’ul tarkibiy bo‘linmalari xodimlarini rag‘batlantirish bo‘yicha takliflar kiritib boriladi.

27. Reyting baholash natijalariga ko‘ra korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi “qoniqarli” deb topilgan davlat tashkilotlariga samaradorlikni yanada oshirish bo‘yicha Agentlik tomonidan har yili 15-martga qadar tavsiyalar kiritiladi.

Davlat tashkilotlari kiritilgan tavsiyalarning bajarilish holati to‘g‘risidagi axborotni Agentlik belgilagan muddatlarda elektron platformaga kiritib borishi lozim.

28. Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi “qoniqarsiz” deb topilgan davlat tashkilotlari har yili 20-martga qadar korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqishi va uni Agentlik bilan kelishilgan holda tasdiqlashi lozim.

29. Ketma-ket ikki yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi “qoniqarsiz” deb topilgan davlat tashkilotlari rahbarlariga belgilangan tartibda intizomiy javobgarlik choralarini qo‘llash masalasi ko‘rib chiqiladi.

6-bob. Yakunlovchi qoida

30. Ushbu Nizom talablarini buzgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

31. Agentlik, zarurat bo‘lganda, reyting baholashning qo‘shimcha yo‘nalishlari va indikator ko‘rsatkichlarini kiritishi mumkin.

Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tartibi to‘g‘risidagi [nizomga](#)
1-ILOVA

Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini

REYTING BAHOLASH YO‘NALISHLARI VA INDIKATOR KO‘RSATKICHLARI

Birinchi yo‘nalish					
Davlat tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mexanizm va huquqiy asoslarning yaratilganligi va amaliyotga tatbiq etilganligi					
Indikatorlar		Ballar			Asos*
1.1. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki idoraviy hujjatlarning ishlab chiqilganligi va o‘z vaqtida yangilab borilishi					
1.1.1. Davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan mahalliy davlat hokimiyati organlari (keyingi o‘rninda — davlat tashkilotlari)da korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha quyidagi ichki idoraviy hujjatlarning mavjudligi va zaruratga qarab yangilanib borilishi: korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati; odob-axloq qoidalari; korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti; manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha nizom; aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamenti; xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha yo‘riqnomalar; kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnomalar; ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnomalar; korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti;	TB 3 ball	AB 2 ball	QB 1 ball	B 0 ball	Tasdiqlangan hujjatlarning elektron shakli ilova qilinadi

<p>korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish reglamenti;</p> <p>korrupsiyaviy xatti-harakatlar va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglament;</p> <p>davlat xaridlarini o'tkazish to'g'risidagi nizom.</p> <p>Izoh: Mazkur to'plamdagagi hamma hujjatlar qabul qilingan bo'lsa, TB, 7 — 11 tasi qabul qilingan bo'lsa, AB, 3 — 7 tasi qabul qilingan bo'lsa, QB, 0 — 3 tasi qabul qilingan bo'lsa, B ustuniga "x" belgisi qo'yiladi.</p>					
1.2. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki idoraviy mexanizmlarning joriy etilganligi					
1.2.1. Korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari					
1.2.1.1. Korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari : kamida 4 ta aloqa kanali (masalan, rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifa, ishonch telefoni, elektron manzil)ning tashkil etilganligi.	TB 1 ball	B 0 ball	Aloqa kanallari havolasi ilova qilinadi		
Izoh: Aloqa kanallari to'liq mavjud bo'lsa TB, aksincha bo'lsa, B ustuniga "x" belgisi qo'yiladi.					
1.2.1.2. Rasmiy veb-saytda va boshqa OAVlarda korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari haqidagi ma'lumotlarning, shuningdek, korrupsiyaga qarshi ichki idoraviy hujjatlarning joylashtirilganligi.	TB 1 ball	B 0 ball	Veb-sayt va boshqa OAVlardagi ma'lumotlar havolasi ilova qilinadi		
Izoh: To'liq ma'lumot va hujjatlar mavjud bo'lsa, TB, aksincha bo'lsa, B ustuniga "x" belgisi qo'yiladi.					
1.2.1.3. Rasmiy veb-saytda korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari haqidagi yillik hisobotning mavjudligi.	TB 1 ball	B 0 ball	Veb-saytdagi ma'lumotlar havolasi ilova qilinadi		
Izoh: Mavjud bo'lsa, TB, mavjud bo'lmasa, B ustuniga "x" belgisi qo'yiladi.					
1.2.2. Kadrlarga oid masalalarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining joriy etilishi					
1.2.2.1. Vakant o'rnlarga kadrlarni tanlov asosida qabul qilish tizimining mavjudligi.	TB 3 ball	AB 2 ball	QB 1 ball	B 0 ball	O'tkazilgan tanlov materiallari (suhbat yoki test bayonnomalari,

<p>Izoh: Hisobot davrida 80 — 100 foiz xodimlar ochiq tanlov asosida ishga qabul qilingan bo‘lsa, TB, 60 — 79 foizi tanlov asosida qabul qilingan bo‘lsa, AB, 30 — 59 foizi tanlov asosida qabul qilingan bo‘lsa, QB, 0 — 29 foizi tanlov asosi♦a qabul qilingan bo‘lsa B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi.</p>				video material) ilova qilinadi	
<p>1.2.2.2. Rasmiy veb-saytda ishga qabul qilish, rotatsiya to‘g‘risidagi e’lonlar va axborotlarning mavjudligi.</p> <p>Izoh: mavjud bo‘lsa, TB, mavjud bo‘lmasa, B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi.</p>	TB 1 ball	B 0 ball		Veb-saytdagi ma’lumotlar havolasi ilova qilinadi	
<p>1.2.2.3. Mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi shartlarning kiritilganligi.</p> <p>Izoh: Mayjud bo‘lsa, TB, mavjud bo‘lmasa, B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi.</p>	TB 1 ball	B 0 ball		Korrupsiyaga qarshi shartlar bilan mehnat shartnomasida tanishganligini imzosi bilan tasdiqlagan xodimlar ro‘yxati ilova qilinadi	
<p>1.2.2.4. Korrupsiya holatlari haqida xabar berish mexanizmi, xabar bergan xodimlarni rag‘batlantirish, ularning ta’qibga olinmasligi kafolatining mavjudligi.</p> <p>Izoh: Tegishli mexanizm mavjud bo‘lsa, TB, mavjud bo‘lmasa, B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi.</p>	TB 1 b♦ll	B 0 ball		Mazkur masalalarni tartibga soluvchi ichki reglament, xodimlar ro‘yxati va statistik ma’lumotlar ilova qilinadi	
<p>1.2.3. Davlat tashkilotlarida manfaatlar to‘qnashuvini hal qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularga rioya etilishi yuzasidan monitoring o‘tkazilishini ta’minalash</p>					
<p>1.2.3.1. Xodimlar tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyani to‘ldirish.</p> <p>Izoh: Hisobot davrida manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyani to‘ldirgan xodimlar 100 foiz bo‘lsa, TB, 70 — 99 foiz bo‘lsa, AB, 30 — 69 foiz bo‘lsa, QB, 0 — 29 bo‘lsa, B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi.</p>	TB 3 ball	AB 2 ball	QB 1 ball	B 0 ball	Ishga qabul qilishda, lavozimi o‘zgarayotganda, rotatsiya qilinayotganda va yillik deklaratsiyani to‘ldirgan xodimlarning kadrlar bo‘limi tomonidan tasdiqlangan ro‘yxati ilova qilinadi

<p>1.2.3.2. Ishga qabul qilinuvchi nomzodlar ustidan o‘tkazilgan tekshiruvlar soni.</p> <p>Izoh: Hisobot davrida 100 foiz nomzodlar tekshirilgan bo‘lsa, TB, 70 — 99 foizi tekshirilgan bo‘lsa AB, 30 — 69 foizi tekshirilgan bo‘lsa, QB, 0 — 29 foizi tekshirilgan bo‘lsa, B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi.</p>	TB 3 ball	AB 2 ball	QB 1 ball	B 0 ball	Ishga qabul qilinuvchi nomzodlarga nisbatan o‘tkazilgan tekshiruvlar to‘g‘risida xulosalar soni ko‘rsatiladi
<p>1.2.3.3. Aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari va uni tartibga solish bo‘yicha qabul qilingan choralar.</p> <p>Izoh: Hisobot davrida manfaatlar to‘qnashuvi aniqlanmagan yoki aniqlangan holatlarga choralar ko‘rilgan bo‘lsa, TB, manfaatlar to‘qnashuvi aniqlangan holatlarga choralar ko‘rilmagan bo‘lsa, B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi.</p>	TB 2 ball	B 0 ball	Aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari reyestri ilova qilinadi		
<p>1.2.3.4. Kontragentlar ustidan o‘tkazilgan tekshiruvlar soni</p> <p>Izoh: Hisobot davrida 100 foiz kontragentlar tekshirilgan bo‘lsa, TB, 70 — 99 foizi tekshirilgan bo‘lsa, AB, 30 — 69 foizi tekshirilgan bo‘lsa, QB, 0 — 29 foizi tekshirilgan bo‘lsa, B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi.</p>	TB 3 ball	AB 2 ball	QB 1 ball	B 0 ball	Kontragentlarni tekshirish reyestri, hisobot davrida o‘tkazilgan kontragentlar tekshiruvlar soni, tekshiruvlar natijalari bo‘yicha ijobiylar va salbiylar xulosalar nusxasi ilova qilinadi
<p>1.2.4. Davlat tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaning oldini olishga doir tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan ushbu tashkilot tomonidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholagan holda muntazam ravishda monitoring o‘tkazish</p>					
<p>1.2.4.1. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotlarning mavjudligi va sifatli to‘ldirilganligi.</p> <p>Izoh: Mazkur indikator bo‘yicha ballar Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan hisobotlarning mavjudligi va sifatli to‘ldirilganligidan kelib chiqib, 0 — 3 ball oralig‘ida belgilanadi.</p>	0 — 3 ball				Korruptsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida umumiy hisobot hamda korrupsiyaga qarshi davlat dasturida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning ijrosi haqida hisobot ilova qilinadi

<p>1.2.4.2. Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish bo‘yicha rejadagi tadbirlarning bajarilganligi.</p> <p>Izoh: Mazkur indikator bo‘yicha ballar Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan rejadagi tadbirlarning sifatlari va o‘z vaqtida bajarilganligidan kelib chiqib, 0 — 3 ball oralig‘ida belgilanadi.</p>		<p>0 — 3 ball</p> <p>Reja (tashkilotning barcha jarayonlarini, monitoring va nazorat qilinadigan davri va tekshiruv muddatlarini o‘z ichiga olgan) va uning ijrosini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi</p>
<p>1.2.4.3. Hisobot davrida aloqa kanallari orqali kelib tushgan korrupsiyaga oid xabarlar bo‘yicha va monitoring natijalariga ko‘ra korrupsiyaviy harakat deb hisoblangan holatlar yuzasidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazilganligi.</p> <p>Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilikning buzilganligi to‘g‘risida tasdiqlangan holatlarning (qonunchilik hujjatlari kesimida) aniqlanganligi.</p> <p>Davlat tashkilotlarida tasdiqlangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha nazorat va tartib-taomillarning buzilish holatlari (ichki hujjatlar kesimida), korrupsiyaviy xatti-harakatlarga yo‘l qo‘ylganlik holatlarining aniqlanganligi.</p> <p>Izoh: 100 foiz tekshirilgan (o‘rganilgan) bo‘lsa, TB, 70 — 99 foiz tekshirilgan (o‘rganilgan) bo‘lsa, AB, 30 — 69 foiz tekshirilgan (o‘rganilgan) bo‘lsa, QB, 0 — 29 foiz o‘rganilgan bo‘lsa, B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi.</p>	<p>TB 3 ball</p> <p>AB 2 ball</p> <p>QB 1 ball</p> <p>B 0 ball</p>	<p>Aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarni ro‘yxatga olish reyestri, xizmat tekshiruvlari reyestri nusxasi ilova qilinadi.</p> <p>Aybdorlar aniqlangan holatlar soni band bo‘yicha bo‘lib ko‘rsatiladi</p>
<p>1.2.4.4. Korrupsiyaga oid qonunchilik va ichki idoraviy talablarni buzgan xodimlarga qo‘llanilgan jazolar.</p> <p>Izoh: Mazkur indikator bo‘yicha ballar Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan, sodir etilgan harakat va qo‘llanilgan jazo tabiatidan kelib chiqib, 0 — 3 ball oralig‘ida belgilanadi. Hisobot yilida o‘tkazilgan tekshirishlar va kelib tushgan xabarlar tahlili asosida qonunchilik va ichki idoraviy talablarni buzgan xodimlar aniqlanmagan bo‘lsa, 2 ball qo‘yiladi.</p>		<p>0 — 3 ball</p> <p>Kadrlar bo‘limi tomonidan tasdiqlangan korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilik va ichki idoraviy talablarni buzgan xodimlar soni hamda ularga qo‘llanilgan choralar ko‘rsatilgan ro‘yxat</p>
<p>Ikkinci yo‘nalish</p> <p>Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo‘yicha tadbirlarning amalga oshirilganligi</p> <p style="text-align: right;">(jami — 30 ball)</p>		

Indikatorlar	Ballar						
	TB 15 ball	AB 10 ball	QB 5 ball	B 0 ball			
2.1. Davlat tashkilotining barcha funksiya va vazifalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash bo'yicha baholash o'tkazilganligi. Izoh: Baholash qamrovi 100 foiz bo'lsa, TB, 70 — 99 foiz bo'lsa, AB, 30 — 69 bo'lsa, QB, 0 — 29 foiz bo'lsa, B ustuniga "x" belgisi qo'yiladi.					Davlat tashkilotining birlashgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi, korrupsiya xavfiga eng ko'p moyil bo'lgan funksiya va lavozimlar ro'yxati ilova qilinadi		
2.2. Aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha ko'rilgan choralar. Izoh: Mazkur indikator bo'yicha ballar aniqlangan xavf-xatar va minimallashtirish uchun ko'rilgan choralar tabiatidan kelib chiqib, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan 0 — 15 ball oralig'ida belgilanadi.		0 — 15 ball			Davlat tashkilotlari, ularning hududiy va tarkibiy bo'linmalarining korrupsiyaga qarshi kurash dasturi ("Yo'l xaritasi") va uning amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi		
Uchinchchi yo'naliш							
Davlat tashkilotlari rahbarlarining korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni ko'rsatuvchi xatti-harakatlarining mavjudligi							
(jami — 15 ball)							
3.1. Davlat tashkiloti rahbarining xodimlar va jamoatchilik uchun korrupsiyaga qarshi kurashishga oid murojaatining mavjudligi, uning xodimlar e'tiboriga yetkazilganligi, hay'at yig'ilishlari va boshqa yig'ilishlarda korrupsiyaga qarshi kurashish holatlarining ko'rib chiqilganligi. Izoh: Mavjud bo'lsa, TB, mavjud bo'lmasa, B ustuniga "x" belgisi qo'yiladi.		TB 1 ball	B 0 ball		Murojaat e'lon qilingan manba havolasi, tegishli hay'at yig'ilishlari va boshqa yig'ilishlar bayonnomasi ilova qilinadi		
3.2. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tuzilmasi tuzilganligi, uning zarur resurslar, shtat birliklari va boshqa moddiy-texnik baza bilan ta'minlanganligi. Izoh: Mazkur indikator bo'yicha ballar Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tuzilmalari orasida elektron platformada o'tkaziladigan so'rovnama natijalaridan kelib chiqib, 0 — 12 ball oralig'ida belgilanadi.		0 — 12 ball			Elektron platformada so'rovnama to'ldiriladi		

3.3. Davlat tashkilotlari rahbarlari va ularning o‘rnbosarlari tomonidan OAV va tadbirlarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chiqishlar.	TB 2 ball	B 0 ball	Ma’lumotlar va materiallar havolasi ilova qilinadi
--	----------------------	---------------------	--

Izoh: Hisobot davridagi har yarim yilda kamida 1-marta mavjud bo‘lsa TB, mavjud bo‘lmasa B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi.

To‘rtinch yo‘nalish

Xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki tartib-taomillardan xabardorligi hamda ushbu sohada bilim va ko‘nikmalarini oshirish bo‘yicha tadbirlarning amalga oshirilganligi

(jami — 15 ball)

4.1. Xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki tartib-taomillardan xabardorligi					
4.1.1. Xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki idoraviy hujjatlar bilan tanishganlik holati hamda korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi.	TB 5 ball	AB 2 ball	QB 1 ball	B 0 ball	Korrupsiyaga qarshi ichki idoraviy hujjatlar bilan tanishganligini imzosi bilan tasdiqlagan xodimlar ro‘yxati, xodimlarning korrupsiyaga qarshi asosiy talablar va tartib-taomillardan xabardorligi yuzasidan yakuniy monitoring natijalari hamda ushbu talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat yakunlari ilova qilinadi**
4.2. Xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida bilim va ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan tadbirlarning amalga oshirilganligi					
4.2.1. Hisobot yilda xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari oshirilganligi.	TB 1 ball	B 0 ball	Davlat tashkiloti tizimi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha umumiyl va maxsus o‘qitishga doir ma’lumotlari (tasdiqlangan ro‘yxat) va tahlil		

Izoh: Mazkur indikatorda oldingi hisobot yilidagi ko‘rsatkichlar soni taqqoslanadi. Bunda, bilim va ko‘nikmalari oshirilgan xodimlarning sonida ijobiy farq bo‘lsa yoki o‘zgarish bo‘lmasa, TB, agar kamayish bo‘lsa, B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi.

				natijalari ilova qilinadi	
4.2.2. Davlat tashkiloti xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tayyorlash va qayta tayyorlashga oid maxsus o‘quv dasturlari, qo‘llanmalar mavjudligi. Izoh: Mayjud bo‘lsa, TB, mavjud bo‘lmasa, B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi.	TB 1 ball	B 0 ball		Korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo‘lgan lavozimda ishlovchi va boshqa xodimlarni, shu jumladan, ishga yangi qabul qilingan xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tayyorlash, qayta tayyorlashga oid maxsus o‘quv dasturlari, qo‘llanmalar ilova qilinadi	
4.2.3. Ishga yangi qabul qilingan xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish tizimining mavjudligi. Izoh: Mayjud bo‘lsa, TB, mavjud bo‘lmasa, B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi	TB 3 ball	B 0 ball		Ishga yangi qabul qilingan xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari oshirilganligi bo‘yicha kadrlar bo‘limi tomonidan tasdiqlangan ma’lumotlar ilova qilinadi	
4.2.4. Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha treninglar o‘tkazish: barcha xodimlar uchun; korrupsiyaviy xavf yuqori darajada bo‘lgan funksiyalarni bajaruvchi bo‘linmalar uchun. Izoh: xodimlarning 70 — 100 foizi o‘qitilgan bo‘lsa, TB, 50 — 69 foizi o‘qitilgan bo‘lsa, AB, 30 — 49 foizi o‘qitilgan bo‘lsa, QB, 0 — 29 foizi o‘qitilgan bo‘lsa, B ustuniga “x” belgisi qo‘yiladi.	TB 5 ball	AB 3 ball	QB 2 ball	B 0 ball	Kadrlar bo‘limi tomonidan tasdiqlangan o‘qitish turlari, shakllari, o‘qitilgan xodimlar soni hamda ularning lavozimi va bo‘linmalari ro‘yxati jadval shaklida ilova qilinadi
Beshinch yo‘nalish					
Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tegishli soha yoki tarmoq kesimida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ushbu illatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan targ‘ibot tadbirlarining samaradorligi (jami — 5 ball)					
5.1. Korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida tashkil etilgan tadbirlar soni. Izoh: Mazkur indikatorda oldingi hisobot yildagi ko‘rsatkichlar soni	TB 1 ball	B 0 ball		Statistik ma’lumotlar ilova qilinadi	

taqqoslanadi. Bunda, o'tkazilgan tadbirlar sonida ijobjiy farq bo'lsa yoki o'zgarish bo'lmasa, TB, tadbirlar sonida kamayish bo'lsa, B ustuniga "x" belgisi qo'yiladi.			
5.2. Korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida tashkil etilgan tadbirlarning qamrov darajasi. Izoh: Mazkur indikatorda oldingi hisobot yilidagi ko'rsatkichlar soni taqqoslanadi. Bunda, o'tkazilgan tadbirlarning qamrov darajasida ijobjiy farq bo'lsa yoki o'zgarish bo'lmasa, TB, qamrov darajasida kamayish bo'lsa, B ustuniga "x" belgisi qo'yiladi.	TB 2 ball	B 0 ball	Statistik ma'lumotlar (ishtiroychilar soni, hududiy qamrov) ilova qilinadi
5.3. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid tarqatilgan ko'rgazmali materiallar, qo'llanmalar, ijtimoiy audio va videoroliklar soni. Izoh: Mazkur indikatorda oldingi hisobot yilidagi ko'rsatkichlar soni taqqoslanadi. Bunda, tarqatilgan materiallar sonida ijobjiy farq bo'lsa yoki o'zgarish bo'lmasa TB, tarqatilgan materiallar sonida kamayish bo'lsa, B ustuniga "x" belgisi qo'yiladi.	TB 2 ball	B 0 ball	Statistik ma'lumotlar ilova qilinadi
<i>Izoh: 1. Tizimga davlat tomonidan qo'riqlanadigan va maxsus ro'yxatlar bilan chegaralab qo'yiladigan alohida ahamiyatli, mutlaqo maxfiy va maxfiy harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-tehnikaviy va o'zga xil ma'lumotlarni kiritish taqiqlanadi. Davlat tashkiloti tomonidan mazkur ma'lumotlar reyting baholashga ta'sir o'tkazadi deb hisoblansa, tegishli indikator ko'rsatkichlarini baholash Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining belgilangan ruxsatnomaga ega bo'lgan xodimi tomonidan o'sha tashkilotga borib amalga oshiriladi.</i>			

Izoh: 1. Tizimga davlat tomonidan qo'riqlanadigan va maxsus ro'yxatlar bilan chegaralab qo'yiladigan alohida ahamiyatli, mutlaqo maxfiy va maxfiy harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-tehnikaviy va o'zga xil ma'lumotlarni kiritish taqiqlanadi. Davlat tashkiloti tomonidan mazkur ma'lumotlar reyting baholashga ta'sir o'tkazadi deb hisoblansa, tegishli indikator ko'rsatkichlarini baholash Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining belgilangan ruxsatnomaga ega bo'lgan xodimi tomonidan o'sha tashkilotga borib amalga oshiriladi.

2. Davlat tashkilotlari tegishli ustunlarga "x" belgisini qo'ygandan keyin uni tasdiqlovchi hujjatlar va boshqa materiallarni "E-Anticor.uz" elektron platformasiga biriktirishi lozim. Tegishli ma'lumotlar biriktirilmagan taqdirda, platformada avtomatik ravishda eng past ball qo'yiladi.

* Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi talabiga ko'ra tegishli hujjat yoki materiallar qo'shimcha biriktiriladi va havolalar ko'rsatiladi.

** Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tanlov asosida xodimlarning korrupsiyaga qarshi ichki hujjatlardan xabardorligi bo'yicha zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda suhbat o'tkazishi mumkin.

Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tartibi to'g'risidagi **nizomga**
2-ILOVA

Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholashni amalga oshirish

SXEMASI

Bosqichlar	Mas'ullar	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (Agentlik)	1. Reyting baholashdan o'tkaziladigan davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan mahalliy davlat hokimiyyati organlari (keyingi o'rnlarda — davlat tashkilotlari) ro'yxatini tuzadi.	Har yili 5-yanvarga qadar

		2. Ro‘yxatga kiritilgan davlat tashkilotlariga “E-Anticor.uz” elektron platformasi orqali tegishli ma’lumotlarni kiritish to‘g‘risida xat kiritadi.	
2-bosqich	Davlat tashkilotlari	“E-Anticor.uz” elektron platformasi orqali Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlaring samaradorligini reyting baholash yo‘nalishlari va indikator ko‘rsatkichlari jadvalini to‘ldirish yo‘li bilan ma’lumot kiritib boradi.	Har chorakda (10-aprel, 10-iyul va 10-oktabrga qadar)
3-bosqich	Agentlik	<p>1. Davlat tashkilotlari tomonidan “E-Anticor.uz” elektron platformasiga kiritilgan ma’lumotlarni tahlil qilib boradi.</p> <p>2. Yakuniy reyting baholash natijalariga ko‘ra korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi “qoniqarsiz” deb topilishi mumkin bo‘lgan davlat organlariga tavsiyalar kiritadi, ularga uslubiy jihatdan ko‘maklashadi.</p>	Muntazam ravishda
4-bosqich	Davlat tashkilotlari	“E-Anticor.uz” elektron platformasi orqali yillik (oldingi yilning 1-yanvaridan baholanish o‘tkazilayotgan yilning 1-yanvariga qadar) ma’lumotlarni kiritadi.	Har yili 10 yanvardan kechiktirmasdan
5-bosqich	Agentlik	Yillik ma’lumotlar kiritilgandan keyin tanlov asosida tegishli davlat tashkilotlari ma’lumotlarining haqqoniyligini o‘rganadi.	Har yili 1-fevralga qadar
6-bosqich	Agentlik	Shakllantirilgan dastlabki reyting baholash natijalarini Reyting baholashni mustaqil amalga oshiruvchi ekspertlar guruhi (keyingi o‘rnirlarda — Ekspertlar guruhi)ga taqdim etadi.	Har yili 5-fevralga qadar
7-bosqich	Ekspertlar guruhi	Agentlik tomonidan shakllantirilgan dastlabki reyting baholash natijalarini ko‘rib chiqadi va quyidagilardan birini Agentlikka taqdim etadi: dastlabki reyting baholash natijalarini o‘zgarishsiz qoldirish yoki qisman o‘zgartirish haqida xulosha; muqobil reyting baholash natijalari.	Har yili 15-fevralga qadar
8-bosqich	Agentlik	1. Ekspertlar guruhi xulosasi (yoki muqobil reyting baholash natijasi)ni puxta tahlil qiladi va unga ko‘ra dastlabki	Har yili 20-fevralga qadar

	Davlat tashkilotlari	<p>reytingni o‘zgartirish yoki o‘zgartirmaslik haqida qaror qabul qiladi.</p> <p>2. Har bir davlat tashkilotiga uning reyting baholash natijasi haqidagi ma’lumotni yuboradi.</p> <p>3. Davlat tashkilotlari o‘z reyting baholash natijalarini ko‘rib chiqadi, taklif va e’tirozlarini Agentlikka yuboradi.</p> <p>4. Agentlik davlat tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan taklif va e’tirozlarni puxta tahlil qiladi va reyting baholashni o‘zgartirish yoki o‘zgartirmaslik haqida qaror qabul qiladi.</p>	Har yili 25-fevralga qadar
9-bosqich	Agentlik	<p>Yakuniy reyting natijalarini Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashga kiritadi hamda o‘z rasmiy veb-sayti va ommaviy axborot vositalari orqali e’lon qiladi.</p>	Har yili 1-mart
10-bosqich	Agentlik Davlat tashkilotlari	<p>1. Reyting baholash natijalariga ko‘ra korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi “qoniqarli” deb topilgan davlat tashkilotlariga samaradorlikni yanada oshirish bo‘yicha tavsiyalar kiritadi.</p> <p>2. Agentlik tomonidan kiritilgan tavsiyalar ijrosi bo‘yicha ma’lumotlarni “E-Anticor.uz” elektron platformasiga kiritib boradi.</p>	Har yili 15-martga qadar Belgilangan muddatlarda
11-bosqich	Davlat tashkilotlari Agentlik	<p>1. Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi “qoniqarsiz” deb topilgan davlat tashkilotlari korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqadi va uni Agentlik bilan kelishilgan holda tasdiqlaydi.</p> <p>2. Tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturini amalga oshirish choralarini ko‘radi.</p>	Har yili 20-martga qadar Belgilangan muddatlarda

(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.01.2022-y., 07/22/81/0017-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son)